



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 4
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

CRITICAL ANALYSIS ON THE EDUCATIONAL SYSTEM OF ENGLISH CHURCH SCHOOLS IN JANE EYRE BY CHARLOTTE BRONTE

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna¹

Juraqulova Gulruh Murot qizi²

Bukhara State University

KEYWORDS

autobiographic, academic achievements, inequality, submission, controlled system, fact-based

ABSTRACT

In this article, the life of the English writer, who lived in the XIX century, Charlotte Bronte, the negative sides of the educational system of boarding school Loovud in the novel "Jane Eyre" and on the whole, some existent problems of 19th century English educational system are described.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7120741

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctor of Philological Sciences, Professor, Bukhara State University, Uzbekistan

² Master, Bukhara State University, Uzbekistan

SHARLOTTA BRONTENING “JEYN EYR” ASARIDA ANGLIYANING CHERKOVLARI QARAMOG’IDAGI MAKTABLAR TA’LIM TIZIMINING TANQIDIY TAHLILI

KALIT SO’ZLAR:

avtobiografik, akademik yutuqlar, tengsizlik, qaramlik, harbiy tizim, dalilbozlikka asoslangan

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan va ingliz adabiyotida yorqin iz qoldirgan ingliz adibasi Sharlotta Bronte hayoti, uning “Jeyn Eyr” asarida tasvirlangan Lovud maktab internatidagi ta’lim tizimining kamchiliklari va umuman 19-asr ingliz ta’lim tizimidagi mavjud ba’zi muammolar to’g’risida so’z boradi.

Mavzuning dolzarbliji. Bugungi kunda ta’lim tizimi taraqqiy etgan davlatlarning ta’limiy evolutsiyasini o’rganish va shuningdek, bevosita ta’lim bilan bog’liq jahon adabiyoti durdonalarini tadqiq etish dinamik xarakterga ega bo’lib, ijtimoiy va pedagogik tizim taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Bu muammoni adabiyot, falsafa, pedagogika hamda etika fanlari tadqiq etadi.

XIX asr ingliz adabiyotiga nazar tashlasak, asosan ijtimoiy real hayotiy voqealarni aks ettiruvchi romanlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, ushbu asrda yashab ijod etgan ingliz adibasi Sharlotta Brontening real hayotiy voqealarga asoslangan “Jeyn Eyr” romani cherkov qaramog’idagi Lovud singari Angliyaning ba’zi chekka maktablaridagi ta’lim tizimi haqida aniq tasavvurlar uyg’ota oladi. Ushbu asar o’z davrining eng muhim jihatlaridan bo’lgan ta’lim va undagi tengsizlik, maktablar faoliyati va ulardagi qator kamchiliklar, o’quvchilar taqdiri haqida muallif tomonidan yuqori badiiylik bilan sayqallangan holda yozilgan. Yosh ijodkor yozuvchining badiiy adabiyot sahnasiyagi kashfiyotlaridan biri ichki ruhiyat va ijtimoiy “taqdir” o’rtasidagi kurashni mohirona yoritib bera olgan va shuning bilan birga, ushbu asar muallifning o’z hayoti bilan uyg’un, keng ma’noda, avtobiografik asar ham hisoblanadi.

Sharlotta Bronte 1816-yilda Yorkshayrda tug’ilib, hayotining juda ko’p qismini shu shtatdagi izg’irin Havort qishlog’ida o’tkazadi. Uning otasi qishloq ruhoniysi bo’lib, onasi esa u juda yosh ekanida vafot etadi. Sharlotta to’rt opa-singillari Elizabet, Anna, Mariya va Emililar hamda Branuel ismli akasi bilan xolasinikiga yashash uchun jo’natiladi. 1824-yilda opa-singillar cherkov xodimlarining qizlari tahsil oladigan internatga yuboriladilar. Maktab davrida Sharlottaning ikki opasi tif kasalidan vafot etishadi, bu voqeal Sharlottaning ruhiyatida chuqur iz qoldirib, keyinchalik “Jane Eyre” asarida ham shunga o’xshash holat, ya’ni Jeynning eng yaqin dugonasining Lovud maktabida tif kasaliga chalinib, o’lim topishi sahnasi orqali aks ettirilgan. Asardagi Lovud maktabida sodir bo’ladigan ko’pgina boshqa voqealar ham aslida muallifning o’zi bilan sodir bo’lgan edi. Sharlottaning internatda ikki opasidan ayrilishi bu juda katta baxtsizlik edi va bu unga maktab haqidagi g’amgin xotiralar qolishiga sabab bo’ladi. Aslida ham, bu davrda Angliyada ta’lim tizimining qator kamchilik

va "qora" tomonlari bor ediki, bularni e'tirof etmaslikning ilojisi yo'q.

19-asrning boshlarida Angliyaning ba'zi chekka hududlarida yigirmata boladan faqat bittasigina maktabga borar va ular ham zodagon oila farzandlari edi. Quyi qatlam oilalarining bolalari esa hafta bo'yи oilasiga pul ishlab kelish maqsadida, dala yoki turli fabrikalarda ishlashgani sababidan maktabga borish uchun vaqt ajrata olisholmasdi. To'g'ri, ba'zi fabrikalarda ishchi bolalar uchun ta'lim berish yo'lga qo'yilgan, ammo bu juda oz bo'lgan. [9]

Bu davrda cherkovlar tasarrufidagi maktablar ham tashkil etilgan va Sharlotta tahsil olgan mакtab ham aynan shunday maktablardan biri edi. Cherkov maktablarida boshqaruв tizimi juda qat'iy bo'lib, o'quvchilar uchun yashash sharoitlari juda qashshoq va og'ir ahvolda bo'lган. Sharlottaning "Jeyn Eyr" asarida bosh qahramon Jeyn ham, 10 yoshida o'rtा qatlam oilalarining qizlari uchun tashkillashtirilgan xuddi shunday xayriya mакtab internati, Lovudning o'quvchisi bo'ladi. Sandra Gilbert va Syuzan kabi adabiy tanqidchilar bu voqeani vaziyatga muvofiq tasvirlash uchun shunday ifodalaydilar: "Janob Brokliharts Jeynni yetim qizlar, nasroniy qaramlarga xos tarzda, ochlikdan sillasi quriydigان va muzlaydigan maktabga olib ketish uchun keldi".[5,344] Lovud bu "qaramlik"ni qat'iy intizom va nazorat asosida amalga oshirar edi. Jeyn(maktabga yangi kelgan o'quvchi)ning maktabdagi birinchi kundanoq, yolg'onchilikda ayblanib, kun bo'yи stulda tik turg'azib qo'yilishi yosh qizning qayg'uga botishiga va, ayni paytda, kitobxonning g'azabiga sabab bo'ladi. Romanni mutolaa qilar ekanmiz, jazolardan qo'rquv hissi beixtiyor kitobxon qalbiga ham ko'chib boradi. Lovuddagi "qizaloqlarning muzlagan suvda qo'llarini yuvishga majbur bo'lishgani sababidan toza bo'lмаган tirnoqlari" kabi kichik, ahamiyatsiz "jinoyatlari" uchun tayinlangan jazolar insoniylik nuqtai nazaridan hech qanday mantiqqa tog'ri kelmaydigan holatdir.

Adabiy tanqidchi Estzer Goldfrey mакtab direktori Janob Broklihartsning qizlarning sochini qirqib tashlashni talab qilishidan maqsad "ularning ayolligi sababidan bir pog'ona past ekanligiga ko'nikishi va sabr qilishni o'rganishlari" [6,857] uchun qilingan edi. Lovudda tashkillashtiriladigan darslar mакtabni xuddiki harbiy fabrikaga o'xshatilishiga sabab bo'ladi, ammo, aksincha, o'sha paytda bunday maktablarga akademik yutuqlarga erishish cheklangan bo'lishiga qaramasdan, aniq tizimli deb baholanan edi.

Sinf xonasining jihozlanishining o'zidayoq o'quvchilarning tartibli qatorlarda o'tirishlari yaqqol namoyon edi. Lovuddagi ilk kechada Jeyn sinf xonasini quyidagicha tasvirlaydi: "katta va uzun xona, katta ikki yonli stollar sinfning ikki yoniga qo'yilgan, har birining so'ngida bir juft shamlar yoqilgan, va stollarning atrofida turli yoshdagi qizlar o'tirishadi".[1,55] Xonadagi keng maydon, o'quvchilar miqdori va ikki stoldagi ikkitadan shamlarning bir xilda qo'yilishi bolalarga g'amxo'rlik va do'stona muhitdan ko'ra ko'proq harbiy tizimga juda o'xshar edi.

Yoinki, sinfda tartib o'rnatilish uchun Miller xonim kelib, "Sinf tiziling!" va "Tinchlik!" deb takrorlaganda hamda bir necha marotaba "Tartib!"[1,55] deb baqirganida, o'quvchilarning barchasi to'rtta yarim doira bo'lib stullar yonida qo'llariga kitoblarini tutib turishlari kerak ekanligini Jeyn kuzatadi.

Miller xonimning buyruqlari va sinf o'quvchilarining matematika darslarida avtomatik tarzda qarama qarshi tomonlarda joylashadigan to'rt guruhgaga bo'linishlari, internatdagi ta'limga yaxshigina tashkillashtirilgan harbiycha tizimga juda o'xshash ekanidan dalolat beradi. Bunday yo'lga qo'yilgan ta'limga muhiti bolalar tomonidan fanlarga oid bilimlarning anglanib o'r ganilishidan ko'ra, ko'proq yodlash va takrorlatilishiga urg'u berar edi. Jeyn sinf xonasiga yaqinlashar ekan qizlarning "ertangi vazifalar"ning "shivirli takrorlashlarini"[1,54] eshitar edi.

O'quvchilar tarix fanidan Charlez I hukmronligidagi Angliya tarixi bobini ikki marotaba o'qishganidan so'ng, Skatcherd xonimning o'quvchilar bilan takrorlash maqsadida "tonnalar, funtlar va soliqlar haqida turli tuman savollar" [1,63] uyushtirar edi.

Bu kabi zerikarli, dalilbozlikka oid savollar mashhur 19-asr tarixiga oid darsliklarni eslatadi, shunday kitoblardan biri, Richmen Mangnalning " Tarixiy va xilma-xil savollar", Brontelarning kutubxonasida ham bo'lib[3,198], mavhum tarixiy voqealarning faktlariga asoslangan savollar va qisqa javoblardan iborat edi. Jeynning tilidan yana boshqa tasvirlarni o'qir ekanmiz, shuni anglab yetamizki, mакtabda darslar "soat bilan belgilanishi", o'quvchilarining berilgan ma'lumotlarni "hazm qil"masdan, tartibni qattiq saqlagan holda savollar bermay, nofaol o'tirishlari Angliyadagi 19-asr maktablarda qoloq va cheklangan metodlardan foydalanilganligidan dalolat beradi[7,16].

Asarda bosh qahramon ota-onasidan erta yetim qolgan qiz yolg'iz bir o'zi hayot uchun kurashadi va komillikka erishish uchun qat'iyat va matonat ko'rsata oladi. 19-asr Angliyadagi Lovud singari ba'zi maktablarning ta'limga berish shakli qoloqligi va shavqatsiz tizimiga qaramasdan, Jeyn yangicha fikrlaydigan, bilimli bir muallima bo'lib yetishishi uning uchun hurmatga sazovor bir maqom edi.[4,2] "Jeyn Eyr" asari mazmunan ta'limga oid asar bo'lishi mumkin, biroq bosh qahramonning boshidan o'tkazganlari orqali, rasmiy ta'limga olish bilan hayot davomida ruhiy va ma'naviy ta'limga olib borish umuman boshqa masala ekanligiga yana bir bora amin bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Brontë, Charlotte. Jane Eyre. New York: Bedford Books, 1996.
2. Bronte, Charlotte "Jane Eyre" adapted by Margery Green. Macmillan Publishers Limited, 2009.
3. Chapple, John. E.Gaskell: The Early Years. Manchester UP, 1997.
4. D'Amica, "Jane Eyre and Education". *Student Publications*: 2018.
5. Gilbert, Sandra M., and Susan Gubar. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. New Haven: Yale UP, 1979.
6. Godfrey, Esther. "Jane Eyre, from Governess to Girl Bride." SEL Studies in English Literature: 2005
7. Marielle, Hampe B.A. "To grow up clean": *Jane Eyre* and education, Washington, DC. April 24, 2016
8. [https://en.wikipedia.org/wiki/Andrew_Bell_\(educationalist\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Andrew_Bell_(educationalist))